

TURLI SHAKL BERISH USULLARINING OLXO‘RI NAVLARIDA MEVALARINING TOVARLILIK SIFATIGA TA‘SIRI

Islamov Sohob Yaxshibekovich

Toshkent davlat agrar universiteti professori

Sultonov Xumoyun Mahmudjon o‘g‘li

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti tadqiqotchisi

<mailto:xumoyunsu@gamil.com>

Annotatsiya

Maqolada shakl berish usullarni olxo‘ri navlari mevalarining tashqi ko‘rinishi, shakli va rangi, pishganligi, shikastlanganlik darajalariga ko‘ra meva xillari, navlarining ajratilganligiga ta‘siri haqida ma‘lumotlar keltirilgan bunda, olxo‘rining Berton Leto Chernosliv Samarqandskiy navlariga Kosasimon Avstriya butasi Siyrak yarusli hamda Kim grin butasi (KGB) usullarida shakl berishning shox va novdalarini rivojlanishi, shakl berilmagan olxo‘ri tuplariga nisbatdan qiyosiy nahlil qilingan.

Аннотация

В статье приведены сведения о влиянии способов формирования на разделение сортов сливы на разные сорта по внешнему виду, форме и окраске плодов, степени спелости, степени поврежденности ветвей и формирования. в методах редкоотводкового и зеленого куста Кима (КГБ) сравнивали с бесформенными кустами сливы.

Kalit so‘zlar: navlari, shakl berish usullari, mevasi tashqi ko‘rinishi, shakli va rangi, pishganlik darajasi,

ЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: сорта, способы формирования, внешний вид, форма и окраска плодов, степень спелости.

Respublikada bog‘dorchilik va uzumchilik tez shiddatlar bilan rivojlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Maxkamasi tomonidan mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta‘minlash, iste‘molchilar talabini qodirish respublikamizda yetishtirilayotgan meva, rezavor mevalar va uzum



mahsulotlari hisobiga to'la qondirish hamda ma'lum miqdorini eksport qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 martdagi PQ-4239-sonli "Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori, 2018 yil 29 martdagi PF-5388-son "O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni, 2019 yil 20 mart PQ-4246-son «O'zbekistonda bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi hamda 2019 yil 11 dekabr. PQ-4549-son «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi»gi qaror va farmonlari ijrosini ta'minlash.

Jahonda olxo'ri mevalarini yetishtirish hajmi 13 mln. tonna bo'lib, 90 ga yaqin mamlakatlarda yetishtirilishi bilan danakmevalilar ichida eng yirik ishlab chiqarilayotgan mevalardan biri hisoblanadi. Olxo'ri yetishtirish bo'yicha jahonda Xitoy Xalq Respublikasi yetakchilik qilib, yiliga 7 mln tonna hosil oladi. Keyingi o'rinlarda Ruminiya davlati 807 ming tonna, Chili davlati 427 ming tonna hosil oladi, O'zbekiston Respublikasida esa yiliga 143 ming tonna olxo'ri yetishtirilishi bilan dunyo bo'yicha 13 o'rinni egallaydi.

Olxo'ri bog'larni tashkil qilishda, daraxtlar qalin qilib ekilishi natijasida va ularni parvarishlashda yo'l qo'yilgan xatoliklar, jumladan noto'g'ri shakl berish oqibatda mevasining miqdoriga va sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatish mumkin

Bog'dorchilikda daraxtlardan iloji boricha yuqori sifatli va mo'l hosil olish maqsad qilinadi. Bu masala bir tomondan erta, o'rta va kech hosilga kiruvchi navlarda daraxtlarni to'g'ri kesish va ularga shakl berish kabi agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va samarali o'tkazishni talab etadi

Mahalliy va chetdan keltirilgan olxo'ri navlarida shakl berish usullarini o'rganish bo'yicha akademik Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida barpo qilingan intensiv olxo'ri bog'larida olib borilgan bo'lib 5 ta shakl berish usuli va 3 ta mahalliy va introduksiya qilingan navlardan foydalanilgan.

Olxo'ri bog'lariga shakl barishda meva berishini yildan-yilga tartibga solish, o'simlik hosildorligini oshiri, shakl berish va kesish orqali gektariga ko'proq daraxt joylashtirishga ham imkoni beradi, shakl berishning, mevalarni terishda mehnat unumdorligini oshirish mumkin. Meva bog'lariga, shakl berish, kesish usullarini,



yarusli, yarussiz, uzun, o'rtacha, qisqartirish hamda siyraklashtirish, shakl berish va kesish ekin turi hamda naviga qarab, shakl berish. Meva bog'lariga shakl berish bilan meva hosilga kirish muddatlarini o'zgartirib, hamda xosil davrini uzaytirish, bog'larni parvarish qilish. Shakl berilganda juda serbarg bo'lib hosil shoxlari ko'p bo'ladi. Bu shakllar daraxtlarni zichlashtirish va yuqori meva hosili olishga imkon beradi. Meva bog'larini tizimli kesish orqali hosilni uch barovarga oshirish imkoniyatini beradi.

Ilmiy tadqiqotlar Butun Rossiya meva ekinlar seleksiyasi ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan "Mevalar, rezavor mevali va olxo'ri o'simliklari navlarini o'rganish usuli va dasturi" (Oryol 1999) hamda Mevali va rezavor mevali o'simliklar bilan tajribalar o'tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi (X.Ch.Bo'riev 2014) asosida o'tkazildi.

Tajriba natijalariga ko'ra olxo'ri navlariga turli usullarda shakl berib, shox novdalarni biometrik o'lchamlarini xisoblashda meva xosilini yig'ib olinganidan so'ngra xisoblar aniqlandi:

Olxo'ri navlaridan yuqori va sifatli hosil olishda agrotexnik tadbirlari bu shakl berishining usullariga bog'liq bo'ladi. Mevalarning tovar ko'rsatkichlari muxum axamiyatga ega bo'lib, ichki bozorga hamda tashqi bozorda mevalarining tovar ko'rsatkichlariga qarab narxlar belgilanadi.

Tadqiqotda olxo'ri navlari mevalarining tashqi ko'rinishi, shakli va rangi, pishganlik darajasi, shikastlanganlik darajalariga ko'ra xil navlariga ajratilgan. Shuningdek olxo'ri navlari danagining og'irligi va mevalarning o'lchami bo'yicha ham nazoratga nisbatan qiyosiy baho berilgan.

2021-2023 yillar davomida olingan natijalarning taxlili shuni ko'rsatadiki, Berton naviga shakl berilmagan nazorat variantda birinchi navli 45 % ni, ikkinchi navli esa 55% ni, danagining o'rtacha og'irligi 0,8 g tashkil etdi. Olxo'ri berton naviga kosasimon usulida shakl berilganda, birinchi navli mevalari 68% ni, nazoratga nisbatan 23% yuqori, ikkinchi navli 32% ni tashkil qilib, nazoratga nisbatan 23% kamligi aniqlandi va danagining o'rtacha og'irli 10 g ni, nazoratga nisbatan 0,2 g yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Berton naviga avstraliya butasimon usulida shakl berilganda, birinchi navli 74% ni, nazoratga nisbatan 29% yuqori, ikkinchi navli 26% ni nazoratga nisbatan 29% kamligi aniqlandi va danagining og'irligi esa 12 g ni, nazoratga nisbatan 0,4 g yuqori bo'lganligi qayt etildi.



Berton naviga siyrak yarusli usulida shakl berilganda, birinchi navli 76% ni, nazoratga nisbatan 21% yuqori, ikkinchi navli mevalar 24% ni nazoratga nisbatan 41% kamligi aniqlandi va danag og'irligi 13 g ni, nazoratga nisbatan 0,5 g yuqoriligi aniqlandi.

Berton naviga Kim grin butasimon (KGB) usulida shakl berilganda, birinchi navli 96% ni nazoratga nisbatan 51% yuqori, ikkinchi navli mevalar 4% ni, nazoratga nisbatan 51% kamligi aniqlandi va danagining og'irligi 16 g ni, nazoratga nisbatan 0,8 g yuqoriligi qayt etildi.

Tajriba natijalariga ko'ra, olxo'ring leto naviga shakl berilmagan nazorat variantda birinchi navli mevalar 25% ni, ikkinchi navli mevalar esa 75% ni va danagining og'irligi esa 0,5 g ni tashkil etdi.

Olxo'ring leto naviga kosasimon usulida shakl berilganda, birinchi navli mevalar 72% ni aniqlanib, nazoratga nisbatan 47% yuqori, ikkinchi navida 28% ni nazoratga nisbatan 47% kamligi aniqlandi va danagi og'irligi 0,9 g ni, nazoratga nisbatan 0,4 g yuqori ekanligi qayt etildi.

Leto naviga Avstraliya butasimon usulida shakl berilganda, birinchi navli mevalar 76% ni, nazoratga nisbatan 51% yuqori, ikkinchi navli 24% ni, nazoratga nisbatan 51% kam ekanligi aniqlandi va danagining og'irligi 11 g ni, nazoratga nisbatan 0,6 g yuqori bo'lishi aniqlandi.

Leto naviga siyrak yarusli usulida shakl berilganda, birinchi navli mevalar 75% ni, nazoratga nisbatan 50% yuqori, ikkinchi navli mevalar 25% ni nazoratga nisbatan 50% kamligi aniqlandi va danagining og'irligi 12 g ni, nazoratga nisbatan 0,7 g yuqori ekanligi qayt etildi.

Leto naviga Kim grin butasimon (KGB) usulida shakl berilganda, birinchi navli mevalar 93% ni nazoratga nisbatan 68% yuqori, ikkinchi navli mevalar 7% ni nazoratga nisbatan 68% kamligi aniqlandi va danagining og'irligi 15 g ni, nazoratga nisbatan 0,10 g yuqori ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Olxo'ring Chernosliv Samarkandskiy naviga shakl berilmagan nazorat variantda birinchi navli mevalar 43% ni, ikkinchi navli mevalar esa 57% ni danagining og'irligi esa 0,7 g, tashkil etdi.



1-жадвал Shakl berish usullarining olxo‘ri navlarida mevalarining tovarlilik sifati (2021-2023 y.y.).

Shakl berish usullari	Navliliigi uchun ajratilgan meva og‘irligi, kg	Birinchi navli, %	Ikkinchi navli, %	Danagining og‘irligi, g	Mevalar guruxi o‘lchami bo‘yicha,
Olxo‘rining Berton navi					
Shakl berilmagan-nazorat	100	45	55	0,8	o‘rtachadan kichik
Kosasimon	100	68	32	10	o‘rtachadan katta
Avstraliya butasimon	100	74	26	12	yirik
Siyrak yarusli	100	76	24	13	yirik
Kim grin butasimon (KGB)	100	96	4	16	juda yirik
Olxo‘rining Leto navi					
Shakl berilmagan-nazorat	100	25	75	0,5	mayda
Kosasimon	100	72	28	0,9	o‘rtachadan katta
Avstraliya butasimon	100	76	24	11	yirik
Siyrak yarusli	100	75	25	12	yirik
Kim grin butasimon (KGB)	100	93	7	15	juda yirik
Olxo‘rining Chernosliv samarkandskiy navi					
Shakl berilmagan-nazorat	100	43	57	0,7	o‘rtachadan kichik
Kosasimon	100	70	30	11	o‘rtachadan katta
Avstraliya butasimon	100	73	27	12	yirik
Siyrak yarusli	100	73	27	11	yirik
Kim grin butasimon (KGB)	100	94	6	14	juda yirik

Chernosliv Samarkandskiy naviga kosasimon usulida shakl berilganda. birinchi navli mevalar 70% ni, nazoratga nisbatan 27% yuqori, ikkinchi navli mevalar 30% ni nazoratga nisbatan 27% kamligi aniqlandi va danagining og‘irligi 11 g ni, nazoratga nisbatan 0,4 g yuqori ekanligi aniqlandi.

Chernosliv Samarkandskiy naviga avstraliya butasimon usulida shakl berilganda, birinchi navli mevalar 73% ni, nazoratga nisbatan 30% yuqori, ikkinchi navli mevalar 27% ni nazoratga nisbatan 30% kamligi aniqlandi va danagining og‘irligi 12 g ni, nazoratga nisbatan 0,5 g yuqori ekanligi qayt etild.



Chernosliv Samarkandskiy navi

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Chernosliv Samarkandskiy navi siyrak yarusli usulida shakl berilganda, birinchi navli mevalar 73% ni, nazoratga nisbatan 30% yuqori, ikkinchi navli mevalar 27 % ni nazoratga nisbatan 30% kamligi aniqlandi va danagining og‘irligi 11 g ni, nazoratga nisbatan 0,4 g yuqori ekanligi aniqlandi.

Chernosliv Samarkandskiy navi Kim grin butasimon (KGB) usulida shakl berilganda, birinchi navli mevalar 94% ni, nazoratga nisbatan 51% yuqori, ikkinchi navli mevalar 6% ni, nazoratga nisbatan 51% kamligi aniqlandi va danagining og‘irligi 14 g ni, nazoratga nisbatan 0,7 g yuqori bo‘lganligi qayt etildi(1-jadval).

Leto navi

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra quydagicha xulosalar olindi:

1. Olxo‘rining shakl berilmagan tuplariga nisbatan shakl berishning barcha usullarida olxo‘ri navlari mevalarining tashqi ko‘rinishi, shakli va rangi, pishganlik darajasi, shikastlanganlik darajalariga ko‘ra mevasi xilligi navlariga ajratilgan. Shuningdek olxo‘ri navlari danagining og‘irligi va mevalarning o‘lchami bo‘yicha ham shakl berilmagan nazorat nisbatan farqlanishi kuzatildi.
2. Shakl berish usullari orasidan Kim grin butasi (KGB) usuli barcha navlarda mevasini yirikligi, tashqi ko‘rinishi, shakli va rangi, pishganlik darajasi, ustunligi bilan yaqqol ajralib chiqdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bo‘riev X.Ch. Mevali va rezavor mevali o‘simliklar bilan tajribalar o‘tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi Toshkent 2014 y.
2. Mevachilik asoslari T.E.Ostonaqulov, S.X.Nazieva, B.X.G‘ulomov Toshkent 2010 y, 13-20 b.



3. Mirzaev M, Temirov J. Bog'dorchilik va tokzorchilik agrotexnologiyasi. – T.: O'zbekiston, 1977. 31-35 b.
4. Рыбаков А.А., Ostrouxova S.A. O'zbekiston mevachiligi. – T.: O'qituvchi, 1981. 300-302 b.
5. Chernovelova V.P. Proizvodetvenno biologicheskaya otsenka sortov slivы, Samarkandskoy oblasti. Avtoreferat dissertatsii za 1974 g, str 12-47
6. Programma i metodika sortoizucheniya plodovыx, yagodных i orexoplodных kultur/ pod red. Ye. N. Sedova, T.P. Ogolsovoy. – Orel : VNIISPK, 1999.–S 300-350.
7. <http://www.fao.org/faostat>.

